

## Qutlov!

---



Hammamizga ma'lumki, yaqindagina O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Mustaqilligimizning o'ttiz yilligi munosabati bilan davlat xizmatchilari hamda ishlab chiqarish va ijtimoiy-iqtisodiy sohalar xodimlaridan bir guruhini mukofotlash to'g'risida

**Farmonni imzolagan edi.**

Qabul qilingan mazkur farmonga asosan Avtomobil yo'llari sohasida ko'p yillar davomida mehnat qilib kelayotgan bir guruh ishchi-xizmatchilar ham yuksak davlat mukofotlariga sazovar bo'lishdi.

Bular,

Qoraqalpog'iston Respublikasi Avtomobil yo'llari bosh boshqarmasi, Chimboy tuman yo'llardan foydalanish unitar korxonasi avtoreyderchisi **Saymbetov Perdebay Jumamuratovich – "Mehnat shahrati" ordeni bilan;**

Xorazm viloyati avtomobil yo'llari bosh boshqarmasi, Shovot tuman yo'llardan foydalanish unitar korxonasi avtoreyderchisi **Ashirov Kurol Saparbayovich - "Sodiq xizmatlari uchun" medali bilan;**

Surxondaryo viloyati avtomobil yo'llari bosh boshqarmasi, Angor tuman yo'llardan foydalanish unitar korxonasi avtoreyderchisi **Achiliev Mustafaqul Jo'raevich - "Shuhrat" medallari bilan taqdirlandi.**

Aziz hamkasblar! Sizlar erishgan ushbu yutuqlar butun yo'l sohasida xizmat qilib kelayotgan barcha-barchani quvontirgani tabiiy holdir.

Sizday yuksak davlat mukofotiga sazovor bo'lgan hamkasblarni sohada xizmat qilayotgan barcha yo'sozlar nomidan muborakbod etgan holda oilaviy baxt, uzoq-umr, sog'liq-salomatlilik hamda kelgusidagi faoliyatizingizga omadlar yor bo'lishini tilab qolamiz

Yana bir bor yuksak davlat mukofotlari muborak bo'lsin!

**Avtomobil yo'llari qo'mitasi**

**jamoasi**